



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 13-noyabr, № 235 (9130)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA



Markaziy Osiyo o'z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o'tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qilayotgan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda.

Bu — o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan jarayon emas, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa'y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir. Ayni paytda bu jarayon o'zaro ishonch muhitida tobora qizg'in tus olayotgani Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy hamkorlik keng ko'lamdagi zaruratga aylanganidan dalolatidir.

Hamkorligimizni mintaqaviy yaqinlashuvning yangi bosqichiga

olib chiqish uchun davlatlarimiz darajasida sharoit yaratilganini ko'rib turibmiz. Oldimizda erishilgan kelishuvlarni fuqarolar va biznes uchun aniq natija va qulayliklarga aylantirishdek strategik vazifa turibdi. Markaziy Osiyo qarorlar shunchaki hujjat sifatida emas, balki mintaq mamlakatlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash va odamlarning kundalik hayotini yaxshilash uchun qabul qilinadigan, imkoniyatlardan birgalikda foydalaniladigan umumiy makonga aylanishi kerak.

Nisbatan qisqa muddatda mintaqaviy hamkorlik va ishonchli muloqotning samarali mexanizmiga aylangan **Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari** mintaqamizda bo'layotgan o'zgarishlarning yorqin timsolidir. Ushbu uchrashuvlar Markaziy Osiyoning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor strategik masalalar bo'yicha umumiy

yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asosiy muloqot maydoni sifatida shakllandi.

Bo'lajak **Toshkent sammiti** barqaror, o'zaro bog'liq va farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etishda yangi muhim bosqichni boshlab beradi.

Davlat rahbarlarining Toshkentdagi uchrashuvi biz boshlagan yo'lning davomi sifatida mamlakatlarimizning o'zaro anglashuv va sheriklik ruhiga sodiqligini tasdiqlashi, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishda tub burilish yasashi kerak.

Jahon tartibotining keng ko'lamda transformatsiyaga uchrashi, global iqtisodiyotni parchalashga qaratilgan xatarlar, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bilan bog'liq muammolarning keskinlashib borayotgani sa'y-harakatlarimizni birlashtirish yo'lidagi intilishimizni kuchaytirdi.

(Davomi 2-betda).



MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA NAVBATDAGI VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga inflyatsiyani jilovlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda 2026-yilga mo'ljallangan vazifalar to'g'risida axborot berildi.

Ichki bozorni to'yintirish va inflyatsiya omillarini jilovlash bo'yicha ichkil ishlar tufayli barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanayotgani, inflyatsiyani pasaytirish va milliy valyutani mustahkamlashda ijobiy natijalarga erishilgani qayd etildi.

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, yillik inflyatsiya darajasi o'tgan yilgi 10,2 foizdan 7,8 foizgacha pasaygan. 2026-yilda bu ko'rsatkichni 7 foizgacha tushirish, 2027-yilda esa 5 foiz doirasida ushlab turish rejalashtirilmoqda.

Shu maqsadda ichki bozorda tovar va xizmatlar taklifini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xususan, 2026-yilda banklar agrar tarmoq, oziq-ovqat sanoati va xizmat ko'rsatish sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirishni kengaytiradi.

Yilqilishda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarini ko'rish muhimligi ta'kidlandi.

Yuqori o'sish sur'atlari va aholi bandligini ta'minlash maqsadida kelgusi yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratiladigan kreditlar hajmi 450 trillion so'mga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbariga mikro, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha berilgan topshiriqlarning

ijrosi haqida axborot berildi. Yil boshidan buyon tadbirkorlik subyektlariga 116 trillion so'mlik kreditlar ajratildi, bu o'tgan yildagiga nisbatan 1,4 barobar ko'pdir.

Mahallabay ishlash doirasida 89 ming fuqaroning biznes tashabbuslari qo'llab-quvvatlanib, ularga 1,1 trillion so'mlik kreditlar ajratildi. Yil yakuniga qadar mazkur ko'rsatkich 100 ming nafarga yetkaziladi.

2026-yilda ham kambag'allikni qisqartirish, aholini tadbirkorlikka faol jalb etish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish rejalashtirilgan. Mikro, kichik va o'rta biznesni kreditlash hajmini 140 trillion so'mga yetkazish, yana 100 ming

fuqaroning loyihalarini qo'llab-quvvatlash mo'ljallangan.

Prezidentimiz aholi va biznes uchun barqaror moliyaviy muhit yaratish, bank tizimiga ishonchni mustahkamlash hamda moliya bozorida sog'lom raqobatni rivojlantirish bundan buyon ham bank-moliya siyosatining bosh vazifasi bo'lishi lozimligini ta'kidladi.

Mutasaddilarga inflyatsiyani jilovlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlash yuzasidan qo'shimcha topshiriqlar berildi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI OQSOQOLLAR KENGASHI RAISINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev multimodal tashuvlar bo'yicha xalqaro forumda ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi Binali Yildirimni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Kengashning ko'p tomonlama tashabbuslarni muvofiqlashtirish va ilgari surishdagi o'rni hamda faol ishtiroki ortib borayotganini hisobga olib, tashkilot doirasidagi hamkorlikni yanada

kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Joriy yilda Budapesht va Gabala shaharlarida o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlarida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan strategik takliflarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Oqsoqollar kengashining institutsional salohiyatini

mustahkamlash, shuningdek, turkiy xalqlarning milliy an'analari, ma'naviy merosi va madaniy birligini saqlashga qaratilgan qo'shma loyihalarni ilgari surish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishni taklif etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI YUNESKONING YANGI SAYLANGAN BOSH DIREKTORINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-noyabr kuni BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) bosh direktori lavozimiga saylangan Holid al-Ananiyini qabul qildi.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi yakunlari va BMTning ushbu nufuzli instituti bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Holid al-Ananiyini yuksak lavozimga saylangani bilan tabriklab, kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tiladi.

O'z navbatida, yangi saylangan bosh direktor O'zbekiston Prezidentiga tashkilotning bosh tadbiri qo'llab-quvvatlangani va yuksak saviyada tashkil etilgani uchun alohida minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston va YUNESKO o'rtasida keng ko'lamli yo'nalishlarni qamrab olgan tizimli va sarmahsul hamkorlik yo'lga qo'yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tomonlarning hamkorlikni

yanada faollashtirish, jumladan, tashkilotning mamlakatimizdagi loyihaviy faoliyatini kengaytirish borasidagi intilishi qat'iy ekani tasdiqlandi.

YUNESKO Bosh konferensiyaning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan strategik tashabbuslarni birgalikda amalga oshirishga tayyor ekani ta'kidlandi.

UTA SHTATI BILAN ALOQALARNING MUSTAHKAMLANISHINI QO'LLAB-QUVVATLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Yuta shtatining Iso Masih Oxirgi zamon avliyolari cherkovi oqsoqoli Devid Bednar va "Stirling" xalqaro xayriya fondi raisi Mayls Xansendan iborat biznes delegatsiyasini qabul qildi. Uchrashuvda AQSHning O'zbekistondagi elchisi Jonatan Xenik ham ishtirok etdi.

O'zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarining sur'ati ortib borayotgan sharoitda Yuta shtati bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

O'zbekiston va Yuta shtati o'rtasidagi faol muloqot va almashinuvlar

mamnuniyat bilan qayd etildi. Raqamlashtirish, ta'lim va ijtimoiy himoya sohalarida qo'shma loyihalar boshlangan.

Innovatsiyalar, tog'-kon sanoati, xotin-qizlar tadbirkorligi, inklyuziv ta'lim, sog'liqni saqlash, suv ta'minoti va sanitariya sohalarida loyihalarni

amalga oshirish uchun katta salohiyat borligi ta'kidlandi.

Yakunda hududlararo aloqalarni rivojlantirish maqsadida Yuta shtati gubernatori boshchiligidagi delegatsiyaning O'zbekistonga tashrifini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA

◀ (Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Bularning barchasi Markaziy Osiyo davlatlaridan yanada jips va hamjihat boʻlib harakat qilishni taqozo etadi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda hamkorligimizni mustahkamlash shunchaki siyosiy maqsad emas, balki strategik zaruratdir. Markaziy Osiyo barqarorlik va bunyodkorlik hududiga, mintaqaviy oʻzaro bogʻliqlik barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun mustahkam poydevor boʻlib xizmat qilayotganining namunasiga aylandi.

Maslahat uchrashuvlari formati yoʻlga qoʻyilgan 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi. Mintaqa yetakchilari koʻp yillar mobaynida birinchi marta tashqi musulchiarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar. Bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan **yangicha siyosiy tafakkur** ramziga aylandi. Aynan Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqot tufayli eski davrdan qolgan bir qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka oʻtishga erishildi.

Mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri — **chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir**. Yaqin-yaqingacha imkonsiz tuyulgan bu muammoning yechimi bugun real holatga, bir paytlar bizni ajratib turgan chegaralar esa doʻstlik va hamkorlik koʻprigiga aylandi. 2025-yil mart oyida Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Tojikiston oʻrtasida **uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta toʻgʻrisidagi Shartnoma va Xoʻjand deklaratsiyasining** imzolanganini tarixiy ahamiyatga molik hodisadir. Buni haqli ravishda olamshumul voqea, deb atash mumkin.

Mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor oʻzaro chegaralarning barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi, oʻnlab yillar davomida keskinlik manbai boʻlib kelgan masalaga nuqta qoʻyildi.

Shu yil oktyabr oyida boʻlib oʻtgan Fargʻona tinchlik forumi mamlakatlarimizning Fargʻona vodiysida tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga boʻlgan oʻzaro itilishining yaqqol amaliy tasdiqi, Markaziy Osiyoda kechayotgan bunyodkorlik jarayonlarining ifodasi boʻldi.

Ilgari keskin kelishmovchilik va ziddiyatlarga sabab boʻlib kelgan **suv-energetika sohasida** ham prinsipial ijobiy oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Oʻzbekiston, Qozogʻiston va Qirgʻiziston oʻrtasida **Qambarota GES-1** loyihasini birgalikda amalga oshirish toʻgʻrisidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochgani qardoshlarcha hamkorlikning yorqin dalilidir.

Toshkent va Bishkek oʻrtasida **Chashma bulogʻidan** birgalikda foydalanish toʻgʻrisidagi kelishuv oqilona murosaga misol boʻla oladi.

Oʻzbekiston va Tojikiston ishtirokida Zarafshon daryosida **Yovon va Fondaryo GESlarini** qurish boʻyicha hamkorlik oldinga siljimoqda, Oʻzbekiston, Tojikiston va Qozogʻiston oʻrtasida **Bahri Tojik suv omborini** vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish boʻyicha kelishuvlarga erishildi.

Turkmaniston bilan hukumatlar-aro bitim doirasida **Amudaryo suv resurslaridan** oqilona foydalanish boʻyicha kelishuvga erishildi. Bu suv resurslarini birgalikda boshqarishni yaxshilaydi hamda ekologik muammolar xavfini kamaytiradi.

Bularning barchasi ishonch, oʻzaro manfaatdorlik va umumiy resurslarga adolatli yondashuvga asoslangan yangi hamkorlik ruhini shakllantirmoqda. Bunday loyihalar aholining iqtisodiy faolligini qoʻllab-quvvatlash va mintaqaning energetik xavfsizligini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Shu bilan birga, chegara tartib-taomillari va gumanitar aloqalar sohasida jiddiy oʻzgarishlar roʻy

bermoqda. 2023-yil sentyabr oyidan boshlab Oʻzbekiston va Qirgʻiziston fuqarolari **ID-kartalar** asosida chegaradan oʻtayotgani odamlarning erkin harakatlanish hududini shakllantirish yoʻlidagi muhim qadam boʻldi. Qozogʻiston va Tojikiston bilan ham shunday kelishuvlar ishlab chiqilmoqda. Hududlar oʻrtasidagi aloqalar kengaymoqda, chegaraoldi savdo hajmi oshmoqda, gumanitar va madaniy aloqalar mustahkamlanmoqda.

Hamkorlikni institutsional jihatdan rasmiylashtirish boʻyicha qadamlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada 2023-yilda Dushanbe shahrida oʻtkazilgan beshinchi Maslahat uchrashuvini qayd etish lozim.

Mazkur uchrashuvda davlat rahbarlarining kelishuvlarini tayyorlash va amalga oshirishning doimiy mexanizmi sifatida **Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashini** taʼsis etish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi. Ushbu mexanizmning ishga tushirilishi Maslahat uchrashuvlari formatiga tizimli tus berish va birgalikda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirishda izchillikni taʼminlash imkonini berdi. Shuningdek, **parlamentlararo muloqot va Xavfsizlik kengashlari kotiblari darajasida muntazam uchrashuvlar** yoʻlga qoʻyilgan.

2022-yilda boʻlib oʻtgan Choʻlponota uchrashuvi yakunlari boʻyicha suveren tenglik, oʻzaro qoʻllab-quvvatlash va mintaqa kelajagi uchun birgalikdagi masʼuliyat tamoyillarini mustahkamlagan **XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadlarida doʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik va hamkorlik toʻgʻrisidagi shartnomaning** imzolanishi **shartnomaviy-huquqiy bazani** yanada mustahkamlashga xizmat qildi. 2025-yilda Tojikistonning bu hujjatga qoʻshilgani mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yoʻlidagi muhim qadam boʻldi. Biz ushbu qarorni olqishlaymiz hamda yaqin istiqbolda Markaziy Osiyoda oʻzaro ishonch, yaxshi qoʻshnichilik va strategik sheriklik ruhini uzil-kesil mustahkamlashga xizmat qiladigan mazkur shartnoma mintaqaning barcha davlatlari tomonidan imzolanishini kutib qolamiz.

2022-yilda davlat rahbarlari tomonidan **Markaziy Osiyo davlatlarining koʻp tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasi** ham tasdiqlandi. Unda mintaqa mamlakatlari xalqaro platformalarda, jumladan, “Markaziy Osiyo plyus” formatlarida oʻzaro muvofiq holda harakat qilishining yoʻnalishlari belgilab olindi.

2024-yilda Ostona sammitida qabul qilingan **“Markaziy Osiyo — 2040” mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi** muhim dasturiy hujjat boʻldi. Unda mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlash va mamlakatlarimiz taraqqiyotiga qaratilgan hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor yoʻnalishlari mustahkamlab qoʻyildi.

Shu tariqa koʻp qirrali oʻzaro hamkorlik arxitekturasini barpo etar ekanmiz, rivojlanish uchun ulkan manbalarni kashf etdik.

Davlatlarning saʼy-harakatlari bilan mintaqada **yangi iqtisodiy voqelik** shakllanmoqda. Soʻnggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar oʻsib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod koʻpayib, 253 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari oʻrtasidagi oʻzaro savdo hajmi 2-marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, oʻzaro investitsiyalar esa 5,6 barobarga yetdi. Birgina mamlakatimizni oladigan boʻlsak, Oʻzbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qoʻshma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi.

Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga 6 foiz atrofidagi oʻsishni

namoyish etmoqda, bu jahondagi oʻrtacha oʻsish surʼatidan ikki karra yuqori. Bunday muvaffaqiyat ishlab chiqarish kooperatsiyasining yangi shakllarini yoʻlga qoʻyish — qoʻshma investitsiya fondlarini (jumladan, Oʻzbekiston — Qirgʻiziston, Oʻzbekiston — Tojikiston va Qozogʻiston — Qirgʻiziston) tashkil etish, avtomobilsozlik, elektrotexnika, toʻqimachilik sanoati, qishloq xoʻjaligi sohalarida loyihalarini amalga oshirish bilan bogʻliq. Mintaqa mamlakatlari tomonidan tasdiqlangan **2025 — 2027-yillarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish boʻyicha Harakatlar rejasi** hamkorlikning muhim vositasiga aylanmoqda. Kichik va oʻrta biznesning oʻsishiga koʻmaklashadigan chegaraoldi savdo zonolari va xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazlari faol rivojlanmoqda.

Gumanitar sohada ham keyingi yillarda aloqalar mustahkamlanmoqda. Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti va Yoshlar platformasi taʼsis etildi, 2022-yildan boshlab rektorlar va olimlar forumlari oʻtkazilmoqda, oʻzaro madaniyat yillari, koʻrgazmalar, konsertlar va sport tadbirlari muntazam oʻtkazilmoqda.

Eng muhimi, **qardosh xalqlarimiz boʻlayotgan barcha ijobiy oʻzgarishlarni oʻz kundalik hayotida his etmoqda**. Yangi oʻtkazish punktlari ochilgani, aviaqatnovlar, temir yoʻl va avtobuslar yoʻnalishlari yoʻlga qoʻyilgani oʻzaro bordi-keldilarni bir necha bor oshirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish imkonini berdi. Mintaqa mamlakatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi.

Yaqin-yaqingacha orzu boʻlib tuyulgan erkin harakatlanish, oʻzaro hurmat, yaqinlik va ishonch tuygʻusi bugun amaldagi haqiqatga aylanmoqda.

Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi **mintaqaviy oʻziga xosligi** vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlarimizni eʼtirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, mushtarak madaniyatini, taqdirlarimiz oʻzaro bogʻliqlik ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qoʻshnichilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarfning muvaffaqiyati — barchaning yutugʻi, degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda.

Mana shunday ishonch, oʻzaro anglashuv va umumiy kelajak ruhi bugungi kunda mintaqaviy jipslashuvni yanada mustahkamlash, yaʼni barqaror va oʻzaro bogʻliq, farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etish boʻyicha **Markaziy Osiyo jarayonini** boshlash uchun eng muhim tayanch asosdir.

Taʼkidlash joizki, Markaziy Osiyoning har bir davlati oʻz saʼy-harakatlarini iqtisodiyotni rivojlantirish, ishonchni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga yoʻnaltirish orqali mintaqamiz barqarorligi va farovonligini taʼminlashga sezilarli hissa qoʻshmoqda.

Qozogʻiston transport yoʻlaklarini faol rivojlantirmoqda, chegara punktlarini modernizatsiya qilmoqda, savdo toʻsiqlarini bartaraf etmoqda va madaniy-gumanitar almashinuv boʻyicha loyihalarini amalga oshirmoqda. Qirgʻiziston va Tojikiston muzliklarning erishi bilan bogʻliq masalalarda izchil hamkorlik qilmoqda, energetika tizimlarini modernizatsiya qilish va transport jihatidan oʻzaro bogʻliqlikni rivojlantirish boʻyicha loyihalarini amalga oshirmoqda. Turkmaniston tinchlik va ishonchni mustahkamlash, mintaqaning transport-tranzit salohiyatini oshirish, BMTning Orol havzasi va iqlim texnologiyalari boʻyicha dasturini qabul qilishga doir muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Amaliy harakatlarimiz, kelajak uchun masʼuliyatimiz, yaxshi qoʻshnichilik, doʻstlik va oʻzaro manfaat tamoyillariga sodiqligimiz shuni isbotladi: **Yangi Markaziy Osiyo** tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yoʻlini tanlamoqda. Ramziy maʼnoda aytganda, biz devor emas, koʻpri

barpo etmoqdamiz.

Mintaqaviy jipslashuv borasidagi yutuqlar tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning oʻz manfaatlari va taraqqiyot yoʻllarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va masʼuliyatli ishtirokchisi sifatida qaror topdi.

“Markaziy Osiyo plyus” hamkorlik formatlari **mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqei** kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolining eʼtirofi boʻldi.

Ilgari tashqi hamkorlar aloqalarni, asosan, ikki tomonlama asosda qurgan boʻlsa, bugungi kunda dunyoning yetakchi davlat va birlashmalari Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik sifatida rivojlantirmoqda.

Bu mintaqaning boshqa hamkorlar bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqadi: Markaziy Osiyo tashqi hamkorlar bilan xalqaro munosabatlarning yagona subyektii sifatida muloqot qilsa, uning ovozi balandroq va ishonchliroq yangraydi, pozitsiyamiz kuchliroq boʻladi, investitsiyalarni jalb etish, boshqa mamlakatlar bilan barcha yoʻnalishlarda hamkorlikni kuchaytirish boʻyicha vazifalarni yanada samarali hal qila olamiz.

Dunyoga ochiqligimiz, niyatlarimizning shaffoffligi va muloqotga moyilligimiz xalqaro maydonda Markaziy Osiyoni yangicha qabul qilish uchun asos boʻldi.

Ayni paytda Markaziy Osiyoni dunyoning yetakchi davlatlari va birlashmalari bilan bogʻlaydigan oʻndan ortiq “Markaziy Osiyo plyus” formatlari faoliyat koʻrsatmoqda. Joriy yilning oʻzida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi”, “Markaziy Osiyo — Xitoy”, “Markaziy Osiyo — Rossiya” va “Markaziy Osiyo — AQSH” sammitlari boʻlib oʻtgni mintaqaning global siyosatdagi shiddati va strategik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Yangidan-yangi “Markaziy Osiyo plyus” muloqotlari davlat rahbarlari darajasiga koʻtarilayotgani ularning amaliy ahamiyati va siyosiy qimmatii ortib borayotganidan dalolat beradi. Bir qator formatlarda esa energetika, transport, “yashil” iqtisodiyot va raqamlashtirish sohalarida aniq loyihalarni ishlab chiqish uchun ishchi guruh va kotibiyatlar tashkil etilmoqda.

Afgʻoniston bilan bogʻliq masalalarni hal etmasdan turib, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlab boʻlmaydi. Bu mamlakat umumiy mintaqamizning bir chekkasida emas, balki uning tabiiy bir qismidir. Butun Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikning mustahkam boʻlishi koʻp jihatdan Afgʻonistonning tiklanishi va rivojlanishiga bogʻliq.

Afgʻonistonning jafokash xalqi **chuqur gumanitar inqiroz** sharoitida yashashda davom etmoqda. Shu munosabat bilan mintaqa mamlakatlari Afgʻonistoni mintaqaviy va xalqaro jarayonlarga izchil jalb etish zarurligidan kelib chiqmoqda. Bu esa ushbu mamlakat taraqqiyoti va keng mintaqamizda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Markaziy va Janubiy Osiyoni bogʻlaydigan **Transafgʻon temir yoʻlini** barpo etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi savdo, investitsiyalar va transport jihatidan oʻzaro bogʻliqlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, Afgʻonistonning iqtisodiy tiklanishi uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, afgʻon xalqiga gumanitar va taʼlim borasida yordam koʻrsatish, energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash ishlari davom etmoqda.

Afgʻoniston umumiy tinchlik va xavfsizlik, hamkorlik va taraqqiyot makonining bir qismiga aylanishi lozim. Bu mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlariga javob beradi hamda Markaziy Osiyoning janubiy

sarhadlarida barqarorlik belbogʻini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, bugungi kunda Markaziy Osiyo oʻz jadal taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qoʻymoqda. Biz ikki tomonlama masalalarni hal etishdan iqlim oʻzgarishi, energetika sohasidagi oʻtish, suv va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish kabi asosiy mintaqaviy tahdidlarga birgalikda yechim topish sari bormoqdamiz. Mamlakatlarimiz oldida umumiy masʼuliyat, oʻzaro ishonch va kelajagimiz haqidagi yakdil tasavvurga asoslangan hamkorlikning yangi ufqllari ochilmoqda.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo yaqin oʻn yilliklarda qanday rivojlanadi, degan prinsipial savolga birgalikda javob berishimiz zarur.

Markaziy Osiyo aholisi 80 millionlik marradan oʻtib boʻldi, BMT prognozlariga koʻra, 2050-yilga borib bu koʻrsatkich 100 milliondan oshadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo dunyoning eng yosh mintaqalaridan biri boʻlib, aholisining oʻrtacha yoshi atigi 29 yoshni tashkil etmoqda.

Oldimizda ushbu demografik resursni taraqqiyot va innovatsiyaning qudratli omiliga aylantirish, yoshlarimizning isteʼdodi va imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish uchun sharoit yaratish vazifasi turibdi.

Ayni paytda mamlakatlarimizning oʻzaro hamkorlikni rivojlantirish suverenitet, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik borasidagi mustahkam poydevor asosida amalga oshirilishi lozim, degan vazmin yondashuvini qayd etish muhimdir. Hech kim mintaqa mamlakatlariga begona modellarni tiqishtirmasligi yoki milliy tuzilmalardan ustun turadigan tuzilmalarni yaratmasligi lozim.

Markaziy Osiyodagi hamkorlik ixtiyoriy, pragmatik va mamlakatlarimiz xalqlariga foyda keltiradigan real natijalarga yoʻnaltirilgan boʻlib qolishi kerak.

Hozirgi bosqichda oldimizda oʻta muhim masalalar turibdi, mintaqamizning barqarorligi va rivojlanish surʼatlari ularning hal etilishiga bogʻliq.

Birinchidan, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni davom ettirish — mavjud mexanizmlarni mustahkamlab, ularga barqaror tus va amaliy maʼno-mazmun bagʻishlash zarur. Oxir-oqibatda samarali mintaqaviy institutlarsiz hamkorlikni tizimli rivojlantirish va qabul qilinayotgan qoʻshma qarorlarni sifatli amalga oshirishni taʼminlab boʻlmaydi.

Ikkinchidan, xavfsizlik sohasidagi maqsadimiz — tahdid va xatarlarga qarshi kurashish boʻyicha umumiy salohiyatni shakllantirishdan iborat. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar, mudofaa va huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini davom ettirish lozim. “Xavfsizlikning boʻlinmasligi” prinsipi asos boʻlib qolishi kerak. Ayni paytda mintaqaviy hamkorlik amaldagi xalqaro mexanizmlar bilan uzviy bogʻliq boʻlishi, barqarorlikni mustahkamlash hamda mamlakatlar va umuman, mintaqa xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning keng doirasiga qarshi turish boʻyicha oʻz salohiyatini shakllantirishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish, chegaralardan oʻtish tartib-taomillarini soddalashtirish va oʻzaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish muhimdir. Sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, mintaqaviy va hududlararo yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi savdo zonalarini rivojlantirish, transport va iqtisodiy yoʻlaklar tarmogʻini kengaytirish, transport, energetika, qishloq xoʻjaligi va raqamli iqtisodiyot sohalarida qoʻshma loyihalarini ilgari surish zarur.

Hamkorlikning ekologik jihatiga — iqlim oʻzgarishlariga moslashish, transchegaraviy suv resurslari va biologik xilmaxillikni asrash, “yashil” energetika va kam uglerodli texnologiyalarga oʻtish boʻyicha

birgalikdagi saʼy-harakatlarga alohida eʼtibor qaratishimiz lozim.

Markaziy Osiyo barqaror ekologik rivojlanish mintaqasi va atrof-muhitga masʼuliyatli munosabatning namunasi boʻlishga qodir va shunday boʻlishi kerak.

Toʻrtinchidan, gumanitar hamkorlik ustuvor yoʻnalish boʻlib qolmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish, taʼlim, ilm-fan va madaniy aloqalarni mustahkamlash markaziy vazifadir. Umumiy axborot makonini yaratish, taʼlim, sogʻliqni saqlash sifatini oshirish, umuman, ijtimoiy sohani, jumladan, turizmni va yoshlarga oid qoʻshma dasturlarni rivojlantirish — bularning barchasi xalqlar oʻrtasidagi oʻzaro anglashuvni mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Umumiy qadriyatlar, madaniy yaqinlik va farovonlikka birgalikda intilishga asoslangan mintaqaviy oʻziga xoslikni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatda kelishilgan yondashuvlarini ishlab chiqish muhim yoʻnalish hisoblanadi. Geosiyosiy beqarorlik tobora ortib borayotgan va jahon kuch markazlari oʻrtasida raqobat kuchaygan sharoitda mintaqa davlatlarining xalqaro maydondagi pozitsiyalarini muvofiqlashtirish barqarorlik va umumiy manfaatlarni himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, asosiy hamkorlar bilan pragmatik aloqalarni yoʻlga qoʻyishda oʻz samaradorligini isbotlagan “Markaziy Osiyo plyus” formatlarini yanada rivojlantirish zarur.

Hozirgi bosqichda “Markaziy Osiyo plyus” formatlari va boshqa xalqaro muloqot maydonlarida mintaqaviy muvofiqlashuvni rivojlantirish, tashqi sheriklar bilan hamkorlik masalalari boʻyicha kelishilgan ustuvor yoʻnalishlar va pozitsiyalarni ishlab chiqish strategik vazifaga aylanmoqda. Faqat shu yoʻl bilangina jahonning yetakchi mamlakatlari va birlashmalari bilan hamkorligimizni davlatlarimiz va butun mintaqaning iqtisodiy hamda texnologik taraqqiyotiga, barqarorligiga xizmat qiladigan aniq loyihalar asosida boyitishimiz mumkin.

Oʻzbekiston uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish taktik tanlov emas, balki Markaziy Osiyo kelajagi uchun umumiy masʼuliyatni anglashdan kelib chiqadigan ongli strategik qarordir.

Ishonchimiz komilki, global noaniqlik davrida yaxshi qoʻshnichilik, hamjihatlik va oʻzaro qoʻllab-quvvatlash — Markaziy Osiyoning asosiy resursidir. Mintaqa mamlakatlari yakka holda hal qilishi qiyin boʻlgan umumiy xavfsizlik muammolari va rivojlanish vazifalari birgalikdagi saʼy-harakatlar bilan muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Ishonch va sheriklikni mustahkamlash oʻz kelajagini umumiy qadrdon diyorimiz — Markaziy Osiyoning tinchligi, barqarorligi va taraqqiyoti bilan bogʻlagan millionlab odamlarning manfaatlariga javob beradi.

Bugun biz kuchli, barqaror va farovon mintaqa — Yangi Markaziy Osiyoning mustahkam poydevorini yaratmoqdamiz.

Mintaqamizda kechayotgan jarayonlar — bu ongli va ortga qaytmas tanlov. Ushbu yoʻl bizdan nafaqat birgalikdagi saʼy-harakatlarni, balki umumiy kelajagimiz uchun masʼuliyatni oʻz zimmamizga olishga tayyor boʻlishimizni ham talab qiladi.

Kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirib, umumiy vazifalarni hal etmoqdamiz, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga tinch va bunyodkor hamkorlikning **vaqt va hayot sinovidan oʻtgan — ishonch, yaxshi qoʻshnichilik va oʻzaro qoʻllab-quvvatlashga asoslangan oʻz modelimizni** taklif etmoqdamiz. Va bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy surʼatni saqlab qolishimiz har qachongidan ham muhimdir.

JAMIYAT TARAQQIYOTINING STRATEGIK OMILI

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanib bormoqda. Siyosiy faol ayollar jamiyatda tenglik va adolatni ta'minlashga, inson huquqlarini himoya qilishga, demokratik institutlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Shu jihatdan ular nafaqat oila va ma'naviyat sohasida, balki davlat boshqaruvi, siyosat va jamoatchilik faoliyatida ham muhim rol o'ynamoqda.

Forum

O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, mamlakat Konstitutsiyasi hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda gender tenglik tamoyillari mustahkamlab qo'yilgan. Ularning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki uchun institutsional mexanizmlar yaratilgan.

Bugun ijtimoiy-siyosiy hayotimizning qaysi jabhasiga qaramang, xotin-qizlarimizning faol qatnashib kelayotganini ko'ramiz va bu jarayon yanada takomillashib bormoqda.

Kuni kecha Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti majlisida ko'tarilgan masalalar, ilgari surilgan g'oyalar ham fikrimizning isbotidir.

Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston parlamentlari rahbarlari hamda rasmiy delegatsiyalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari qatnashgan ushbu xalqaro anjuman joriy yilda 30-yilligi nishonlanayotgan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasining ustuvor maqsadlarini amalga oshirishda mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratildi. Mazkur xalqaro hujjatlar ayollarning siyosiy ishtiroki, iqtisodiy mustaqilligi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga teng huquqli kirish, gender zo'ravonlikni bartaraf etish va ekologik hamda iqlim siyosatida ayollarning rolini kuchaytirish kabi 12 ta muhim yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Anjumanni kirish so'zi bilan ochib bergan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mintaqada ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, ularning salohiyatini namoyon etish va davlat boshqaruvidagi o'rinni mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ta'kidladi. Markaziy Osiyoda ayollar rolining o'rinishi — nafaqat jamiyat taraqqiyoti, balki tinchlik, barqarorlik va iqtisodiy o'sishning kafolati ekanini, ushbu muloqot ayollar hamjihatligi va hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishini qayd etdi.

Muloqot majlisi doirasida ishtirokchilar bir necha sessiyalarga bo'lingan holda bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ishtirokiga doir eng dolzarb masalalarni muhokamadan o'tkazdi.

"Qaror qabul qilish jarayonida ayollarning ishtiroki: huquqlar, imkoniyatlar va mas'uliyat" mavzuidagi birinchi sessiya ishini "BMT-ayollar" tashkilotining Markaziy Osiyo bo'yicha vakolatxonasi rahbari Cheren Gyuven Gyuresh o'z ma'ruzasi bilan ochib berdi. U mintaqada ayollarning siyosiy hayotdagi ishtiroki ortib borayotganini aytarkan, bu boradagi keng ko'lamli islohotlar davom etishi zarurligini ta'kidladi.

So'zga chiqqanlar ayollarning parlament, ijro hokimiyati va mahalliy Kengashlardagi ulushini amaliy mexanizmlar orqali oshirish, gender kvotasi va muvozanatini ta'minlashning samarali vositalarini joriy qilish masalalariga e'tibor qaratdi. Bundan tashqari, ma'ruzalarda xotin-qizlarning siyosiy ishtiroki uchun qonuniy kafolatlarni yanada mustahkamlash hamda ularning siyosiy faolligini cheklayotgan madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni bartaraf etishga urg'u berildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning, jumladan, ayollarning davlat va jamoat ishlarda qatnashish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, 2019-yilda imzolangan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun ayollarning siyosiy jarayonlarda teng ishtirokini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'lmoqda. Mazkur qonunga muvofiq, ayollar davlat boshqaruvi organlariga saylanish, rahbarlik lavozimlariga tayinlanish va siyosiy qarorlar qabul qilishda teng huquqlarga ega. Bu normalar BMTning "Ayollarga nisbatan kamситishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya"si talablariga ham mos keladi.

Sessiya qatnashchilari ayollarning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtiroki adolat va tenglikning o'ziga xos talabi bo'lish bilan birga, mamlakatlar barqaror taraqqiyotga erishishida asosiy omil ekanini ham ta'kidladi.

Markaziy Osiyoda ayollar tadbirkorligi — iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik manbai mavzusi ham ishtirokchilarning qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi. Unda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy mustaqilligi va biznesdagi imkoniyatlarini kengaytirish, mintaqada tadbirkor ayollar o'rtasida hamkorlik loyihalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha atroflicha mulohaza yuritildi.



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

Sir emas, bugun ayollar tadbirkorligi nafaqat kichik va o'rta biznesni rivojlantiradi, balki ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, mahalliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashda ham muhim o'rin tutmoqda.

Tadbir ishtirokchilari ma'ruzalarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun qonuniy va institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, moliyaviy resurslarga yetishishdagi to'siqlarni kamaytirish, biznesni raqamli iqtisodiyot va eksport bozorlariga integratsiya qilish, mintaqaviy qo'shma startaplar va innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda gender stereotiplar va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratdi.

Muloqot majlisi doirasidagi navbatdagi mavzu "Ayollar salohiyatini oshirishda ta'lim va reproduktiv salomatlik siyosati" yo'nalishida bo'ldi.

Ayollar salohiyatini oshirish — mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Inson kapitalida ayollar bilim, madaniyat va ma'naviyatni avlodlarni avlodga yetkazuvchi asosiy kuch sifatida muhim o'rin tutadi.

Ta'lim — ayollar salohiyatini yuksaltirishda eng samarali vosita. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, bilimlilar ayollar oilaviy qarorlarda faollikni namoyish qiladi, sog'lom turmush tarzini tanlaydi, ularning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyati yuqoriroq bo'ladi.

Mamlakatimizda ayollarning ta'lim sohasidagi ishtiroki davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, qizlar uchun oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatlari kengaymoqda, "STEM" sohalarida qo'llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda, ularning bilim va ko'nikmalarini kengaytirish

maqsadida Ayollar ta'lim va kasb mahoratini rivojlantirish markazlari tashkil etilgan. Bu choralar xotin-qizlarning mehnat bozorida raqobatbardosh shaxslarga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Ayollar uchun reproduktiv salomatlik, bu faqat tibbiy yoki biologik hodisa emas, balki ijtimoiy va ma'naviy kategoriya hamdir. BMT ta'rifiga ko'ra, reproduktiv salomatlik insonning sog'lom turmush kechirish, farzand ko'rish yoki ko'rmaslik haqida ongli qaror qabul qilish huquqini ta'minlaydigan holatdir.

Muhokamalarda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari ayollarning inson kapitali, ijtimoiy-siyosiy faolligi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydigan asosiy omillar ekanini ta'kidlandi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti majlisi doirasida "Innovatsiyalar, ommaviy axborot vositalari va iqlim siyosatida ayollar ishtiroki — imkoniyatlar va to'siqlar" hamda "Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish va huquqiy himoya" mavzularida ham fikr yuritildi.

Muhokamalarda ayollarning ilmiy-texnik va innovatsion loyihalaridagi ishtiroki, raqamli transformatsiya, media va iqlim siyosatini shakllantirishdagi roli, shuningdek, bu sohalarda qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etilishi, OAV orqali gender stereotiplarini yengish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish, yuridik va psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligini rivojlantirish kabi masalalar borasida ham qizg'in muhokamalar bo'lib o'tdi. Xususan, oilada zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan qonunlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlari va krizis uylarining ahamiyati alohida ta'kidlandi.

Muloqot majlisi yakunida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. U Markaziy Osiyo mamlakatlari xotin-qizlar huquqlari, gender tenglik va barqaror rivojlanish masalalarini ilgari surishga bag'ishlangan mintaqaviy sa'y-harakatlarni e'tirof etadi.

Shuningdek, forumda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan qo'shma tashabbusi — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlariga yo'llangan Murojaatnoma taqdim etildi.

Ishtirokchilar ayollar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ta'lim va innovatsiya imkoniyatlarini kengaytirish, reproduktiv salomatlik hamda sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish sohalarida ustuvor vazifalarni o'z ichiga olgan mintaqaviy "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishdi.

Qizg'in muhokamalarga boy bo'lgan tadbir yakunlari shuni ko'rsatadiki, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotining strategik omili hisoblanadi. Ular nafaqat siyosiy qarorlarning ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi, balki demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga, ularning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgani esa kelgusida xotin-qizlarimizning davlat boshqaruvidagi ishtiroki yanada kuchayib, jamiyatda gender tenglik to'la amalga oshirishga mustahkam zamin yaratadi.

Hamroqul QARSHIYEV
("Xalq so'zi").

Uchrashuv

MINTAQAVIY HAMKORLIKNI CHUQURLASHTIRISHDA MUHIM PLATFORMA

Toshkent shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti majlisi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva xalqaro hamkorlar hamda qo'shni davlatlar parlamentlari vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Unda mintaqada ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni va faolligini oshirish, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Senat Raisi BMTning Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha Taraqqiyot masalalarini muvofiqlashtirish idorasi mintaqaviy direktori Gvi-Yeop Son xonim bilan uchrashuvda O'zbekiston va BMT tizimidagi tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari, Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga qo'shayotgan hisssasi haqida fikr almashdi.

Gvi-Yeop Son xonim Samarqandda o'tayotgan YUNESKoning 43-sessiyasi Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarga xalqaro hamjamiyat tomonidan bildirilayotgan yuksak ishonch ifodasi ekanini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, Senat Raisi Tanzila Norboyeva Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag'asi o'rinbosari Jildiz Sadirbayeva, Tojikiston Respublikasi Majlisi namoyandagon Majlisi Oli raisining o'rinbosari Muini Mavsuma, Qozog'iston Respublikasi Parlament Majlisi raisi o'rinbosari Daniya Yespayeva hamda Turkmaniston Mejlisining Fan, ta'lim, madaniyat va yoshlar siyosati qo'mitasi raisi Miradova Bayramgozel bilan ham uchrashuvlar o'tkazdi.

Muloqotlarda davlatlar o'rtasida do'stona qo'shnichilik, o'zaro ishonch va strategik hamkorlikka asoslangan munosabatlarni izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlandi. Bu jarayonda yetakchi ayollarning faol ishtiroki, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, jamiyatda ayollarning ijtimoiy-siyosiy o'rinni mustahkamlashga qaratilgan islohotlarning ahamiyati alohida qayd etildi.

Shuningdek, hududlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada faollashtirish, sanoat, energetika, ishlab chiqarish va ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda qo'shma loyihalarini kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Uchrashuv ishtirokchilari Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, ayollar faolligini oshirish va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim platforma ekanini alohida ta'kidlashdi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



TABIY ZAXIRALAR NAZORAT OSTIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan joriy yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axboroti eshitildi.

Tadbir davomida 2025-yilda inspeksiya tomonidan yer qaridan noqonuniy foydalanish, yer osti suvlari nazorati yo'nalishlarida bir qancha nazorat tadbirlari amalga oshirilgani ta'kidlandi. Natijada jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli yozma ko'rsatmalar berilgan. Ayrim korxonalarining ish faoliyati to'xtatilgan bo'lsa, huquqbuzarlik sodir etgan qator subyektlar ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Bu yilda yer qaridan foydalanishda videotasvir orqali yozib olingan huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish, videoyozuvlarni yuborgan shaxslarni rag'batlantirish tartibini belgilovchi nizom tasdiqlangan sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirib, qonun buzilishi holatlarini sezilarli darajada kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda inspeksiya tomonidan sohani raqamlashtirish bo'yicha jadal harakatlar olib borilmoqda. "Geomonitoring" axborot tizimi ishlab chiqilib, "yashirin iqtisodiyot"ning oldini olish uchun axborot tizimida noruda foydali qazilmalar bo'yicha ma'lumotlar bazasi raqamlashtirildi. Bir qancha tegishli davlat organlaridagi tizimlar bilan integratsiya qilindi.

Munozaralar davomida deputatlar o'tgan davrda amalga oshirilgan ishlarni e'tirof etib, sohada ayrim masalalar borligini aytishdi. Xususan, noqonuniy qazib olish holatlari hanuz yuqori ekanini, bu borada nazorat tadbirlarini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi. Deputatlar tomonidan sohani raqamlashtirish jarayonini jadallashtirib, inson omilini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlari uchun shaffof va soddalashtirilgan tartib-taomillarni ta'minlash, tog'-kon sanoati korxonalarida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilib, ularning oldini olish lozimligi aytib o'tildi.

Shuningdek, inspeksiya tomonidan o'tkazilgan ichki xizmat tekshiruvlari natijalaridan kelib chiqib, korrupsiyaning oldini olish va xodimlarning mas'uliyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish muhimligi qayd etildi. Muhokamalar chog'ida noqonuniy qazib olishga qarshi choralarini kuchaytirish, huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashish, inspeksiya tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini raqamlashtirish va onlayn shaklga o'tish, sohada kadrlar sonini ko'paytirish bo'yicha qator takliflar berildi. Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

INSON QADRINI ULUG'LASH SIYOSATINING AMALDAGI IFODASI

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Yangi Toshkent shahridagi yirik sport inshooti — zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamal toshi qo'yilishi mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yosh avlodni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish borasida muhim qadam bo'ldi.

Munosabat

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilayotgan mazkur yirik loyiha kelgusida o'zbek futbolining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Butun jamoatchilik, sportchilar, ayniqsa, futbolga qiziqadigan millionlab muxlislar yirik stadion qurilishiga o'x xabarni katta xursandchilik bilan kutib oldi.

Darhaqiqat, sport — millat salohiyatini belgilaydigan kuch. Zamonaviy stadion qurilishi nafaqat futbol sohasi, balki butun

sport infratuzilmasi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki sport — xalq salomatligi, yoshlar ruhiyati va millat salohiyatining asosi. Ayniqsa, futbol butun dunyodagi eng ommaviy va ta'sirchan sport turi hisoblanadi. U nafaqat turnir maydonlarida, balki millat ruhiyatida, jamiyat birdamligida ham katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning futbolga bo'lgan muhabbati, Vatan sha'nini himoya qilayotgan sportchilarimizga bo'lgan ishonchi yuksak.

Yangi Toshkentda barpo etiladigan bu stadion xalqaro standartlarga javob

beruvchi, ko'p funksiyali sport majmuasi bo'ladi. Unda nafaqat respublika, balki xalqaro musobaqalarni ham o'tkazish imkoni yaratiladi. Bu esa jahon maydonida mamlakatimizning nufuzini yanada oshiradi, turizm va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng muhimi, mamlakatimiz bayrog'ini xalqaro sport arenalarda yanada baland ko'tarishga xizmat qiladi.

Albatta, yoshlarimizga shart-sharoit yaratish, zamonaviy sport maydonlari qurish — bu ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun asosiy omil. Yangi stadion orqali nafaqat professional sportchilar, balki ommaviy sport bilan shug'ullanuvchi yoshlar ham zamonaviy muhitda mashg'ulot o'tkazish imkoniga ega bo'ladi.

Aytish mumkinki, Yangi Toshkentdagi bu bunyodkorlik ishlari mamlakatimizdagi

izchil islohotlarning mantiqiy davomidir. Infratuzilmani rivojlantirish, aholi uchun qulay muhit yaratish, madaniy va sport obyektlarini qurish — bularning barchasi inson qadriini ulug'lash siyosatining amaldagi ifodasi.

O'z navbatida, biz, deputatlar ham bu kabi yirik loyihalarini qo'llab-quvvatlagan holda ularning amalga oshishi uchun zarur huquqiy asoslarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Shubhasiz, Yangi Toshkentda barpo qilinayotgan bu ulug'vor stadion kelgusida mamlakatimizning sport, ayniqsa, futbol markaziga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimizni g'alabalar sari ilhomlantiradi va O'zbekiston nomini dunyoga yanada keng tanitadi.

Shuhrat YOQUBOV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

Mehnat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, ish vaqtidan tashqari ishning davomiyligi yiliga 120 soatdan oshmasligi to'g'risidagi talab chiqarib tashlandi.

AMERIKALIK TADBIRKORLARNING O'ZBEKISTON ISLOHOTLARIGA ISHONCHI BALAND

Davlatimiz rahbarining o'tgan hafta Amerika Qo'shma Shtatlariga amalga oshirgan tashrifi doirasida erishilgan muhim voqealardan biri AQSH Eksport-import banki rahbari Jon Yovanovich bilan uchrashuv va mazkur bank bilan imzolangan Qo'shma loyihalarni moliyalashtirish to'g'risidagi bitim bo'ldi.

Mazkur moliyaviy muassasaning AQSH hukumati rasmiy eksport-kredit agentligi maqomiga egaligi inobatga olinsa, imzolangan hujjat O'zbekistonning

Nuqtai nazar

Investitsiyalar oqimi ko'payadi

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda AQSH Eksimbanki o'rtasida imzolangan bitim "C5+1" sammiti doirasidagi muhokamalarning amaliy natijasi bo'lib, so'zdan amaliy ishlarga o'tishning aniq ko'rsatkichidir. U energetika, muhim mineralar, transport, qishloq xo'jaligi va AT kabi strategik yo'nalishlardagi yirik loyihalarni moliyalashtirish uchun mustahkam huquqiy asos vazifasini o'taydi, loyihalarni ishga tushirish jarayonini tezlashtiradi va ularga moliyaviy kafolat beradi. Bitim AQSHdan O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining ko'payishiga xizmat qiladi. Bu esa boshqa xalqaro investorlar uchun ham O'zbekiston bozoriga kirishiga ijobiy signal bo'lib xizmat qiladi. Bitimda "amaliy hamkorlikni davom ettirish va uzoq muddatli sheriklik rejasini ishlab chiqish"ga kelishilgan hamkorlikning vaqtinchalik emas, balki davomiy bo'lishidan dalolat beradi.

Umuman olganda, imzolangan kelishuv O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish yo'lida AQSH bilan strategik va amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish, ilg'or texnologiyalarni jalb etish hamda milliy iqtisodiyot modernizatsiyasi uchun muhim eshiklar ochadi. Bu davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirib, barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maqsad — iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish

Tashrif doirasida bo'lib o'tgan AQSH Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh direktori Ben Blek bilan uchrashuvda ham oliy darajadagi faol muloqotlar va savdo-investitsiyaviy hamkorlik kengayib borayotgani qayd etildi. Energetika, muhim mineralar, moliya, transport, qishloq xo'jaligi va AT sohalarida yirik qo'shma tashabbuslar ishlab chiqilmoqda. Amaliy sheriklikni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Ustuvor loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shma investitsiya platformasini yaratishni jadallashtirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Toshkent shahrida korporatsiyaning mintaqaviy ofisini ochish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rib chiqildi. Davlatimiz rahbari korporatsiyaning infratuzilma loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik asosida ishtirok etishi muhimligini ta'kidladi.

"DFC" — AQSHning milliy

iqtisodiy rivojlanishi va AQSH bilan hamkorligida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini yanada oydinlashadi.

AQSH Eksimbanki yirik infratuzilmaviy va sanoat loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur hisoblangan salmoqli moliyaviy mablag'larga ega bo'lib, u Qo'shma Shtatlar kompaniyalarining xorijdagi faoliyati bilan bog'liq xavflarni sug'urtalash va kafolatlash orqali ularni O'zbekiston bozoriga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.



uning rivojlanishi YIMning o'sishiga sezilarli hissa qo'shadi. Ishlab chiqarishning kengayishi, mahalliyashtirishning chuqurlashuvi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi. Agar ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportga yo'naltirilsa, bu mamlakatga valyuta tushumlarini oshirishga xizmat qiladi. "GM" bilan hamkorlik nafaqat mavjud modellarni ishlab chiqarishni, balki mahsulot turini kengaytirish orqali avtomobil sanoatini diversifikatsiya qilishni anglatadi. Bu bozor talablariga mos keladigan yangi turdagi avtomobillarni (masalan, elektromobillar, gibridlar yoki zamonaviyroq yoqilg'i tejamkor modellarni) ishlab chiqarish imkonini berishi mumkin.

Mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish importga qaramlikni kamaytiradi, mahsulot tannarxini pasaytiradi va sanoatni rivojlantirishga turtki beradi. Bu qo'shilgan qiymat zanjirini mamlakat ichida saqlab qolish imkonini yaratadi. "GM" kabi global yetakchi bilan hamkorlik eng zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, boshqaruv tizimlari va sifat nazorati standartlarining O'zbekistonga kirib kelishini ta'minlaydi. Mahalliy mutaxassislarning malakasini oshiradi va butun mashinasozlik tarmog'ining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy mashinasozlikda talab yuqori bo'lgan yangi texnologiyalar va xomashyo sohasidagi qo'shma loyihalar, masalan, akkumulyatorlar ishlab chiqarish, yengil va mustahkam materiallar yaratish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bular kelajakdagi avtomobil sanoati uchun strategik ahamiyatga ega. "General Motors" kabi yirik global kompaniyaning O'zbekiston bilan uzoq muddatli hamkorlikka bo'lgan qiziqishi mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhiti va siyosiy barqarorlikka bo'lgan ishonchning yaqqol dalilidir.

Savdo aloqalari yanada mustahkamlanadi

Amerika Qo'shma Shtatlari savdo vaziri Xovard Latnik bilan uchrashuvda O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash, savdo va investitsiyaviy hamkorlikni

faollashtirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashda va iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu uchrashuv ko'p qirrali munosabatlarni izchil rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda tovar ayirboshlash hajmining 4 barabar ko'payib, qariyb 1 milliard dollarga yetgani ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning jadal rivojlanayotgani va katta salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. O'zbekistonda 300 dan ortiq AQSH kompaniyalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ikki tomonlama biznes aloqalarining chuqurligi va kengligidan dalolat. Sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika va innovatsiya sohalaridagi yirik kooperatsiya loyihalari O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xomashyoga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Uchrashuvda ilgari surilgan savdo aloqalarini mustahkamlash va Muvoqlashtiruvchi kengash ta'sis etish taklifining amalga oshishi hamkorlikni tizimli va barqaror asosda olib borishga imkon beradi. Bu mintazam muloqotni ta'minlaydi, mavjud muammolarni tezkor hal qilish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Oldinroq AQSHdan soya va paxta yetkazib berish bo'yicha dastlabki shartnomalar imzolangan bo'lib, bu qishloq xo'jaligi xomashyosi bazasini kengaytiradi. Ayniqsa, Amerikaning ilg'or tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish O'zbekiston uchun juda muhim. Kelishuv suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligini oshirish va atrof-muhitga zararni kamaytirishga yordam beradi. Ushbu hamkorlik O'zbekistonning qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, uni jahon standartlariga moslashtirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiya platformasini yaratishga kelishib olingani esa muzokaralar aniq amaliy natijalarga qaratilganini ko'rsatadi. Bu platforma investorlar uchun xavflarni kamaytirish va loyihalarni moliyalashtirish jarayonini soddalashtirish demakdir. Uchrashuv ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nafaqat hozirgi, balki kelgusi uzoq muddatli istiqbolda ham strategik ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Mamlakatimiz yetakchisining AQSH savdo vaziri va boshqa yirik korporatsiya hamda kompaniyalar vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlari O'zbekiston uchun AQSHning ulkan salohiyati va texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, savdo aylanmasini oshirish, yangi investitsiyalarni jalb etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun keng imkoniyatlar eishigini ochadi. Bu davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirib, global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Sadritdin TUROBJONOV,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, akademik.

Anjuman

QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA ILMYI YONDASHUVLAR

Toshkent davlat agrar universiteti (ToshDAU) tashkil etilganiga 95-yil to'lishi munosabati bilan "Global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Unda so'zga chiqqan Qishloq xo'jaligi vaziri, akademik Ibrohim Abdurahmonov ilm-fan taraqqiyoti, yoshlarning yetuk, bilimdon mutaxassislar bo'lib voyaga yetishi, bu borada bog'chadan tortib maktab va oliygo'hlarga qadar butun tizimni takomillashtirish Prezidentimizning e'tiborida ekanini alohida ta'kidladi. ToshDAUning bugungi ilmiy salohiyati, ta'lim-tarbiya, xalqaro hamkorlik yo'nalishida erishayotgan yutuqlari bunga yaqqol misoldir.

Tadbirda Qozog'iston qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi prezidenti Tlektes Yesbolov, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) vakili Shoki Al-Dobai, Rossiya davlat agrar universiteti — K. A. Timiryazev nomidagi Moskva qishloq xo'jaligi akademiyasi rektori, akademik Vladimir Truxachev, Shimoli-g'arbiy qishloq va o'rmon xo'jaligi universiteti vitse-prezidenti, professor Ma Chuang kabi dunyoda tan olingan olim va mutaxassislar qatnashdi.

Notiqlarning e'tirof etishicha, bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanish kabi dolzarb muammolarni hal etishda ToshDAU singari xalqaro e'tirofga loyiq ilmiy muassasalarning o'rni beqiyos. Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bu dargoh oddiy institutdan dunyodagi nufuzli tashkilotlar-u universitetlar bilan integratsiyalashgan yirik ilmiy markazga aylandi.

Qariyb bir asrlik faoliyati davomida mamlakatimiz iqtisodiyoti, agrar tarmog'i uchun yuz minglab malakali mutaxassislarni tayyorlab bergan universitet bitiruvchilari orasida akademiklar, taniqli davlat arboblari, xorijiy tashkilotlar mutasaddilar, iqtidorli va jonkuyar olimlar, ilmiy ishlari xorijda e'tirof etilgan professorlar borligi kishini faxrlantiradi. Ayni chog'da 15 mingdan ortiq talabalarni o'z bag'rida jamlagan ToshDAU tarkibida 8 ta fakultet, 29 ta kafedra, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va innovatsion ta'lim markazlari faoliyat yuritmoqda. Universitetda ta'lim-tarbiya jarayonlarini yanada takomillashtirish, ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro loyihalar va hamkorlik ko'lamini kengaytirishga ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratilmoqda.

— Ochig'i, konferensiya bahonasida bu yerga kelib, universitetda amalga oshirilgan so'nggi yangiliklar-u tajriba dalasidagi o'zgarishlar, yaqinda o'rnatilgan zamonaviy asbob-uskunalarni ko'rib hayratim oshdi, — deydi Qozog'iston qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi prezidenti Tlektes Yesbolov. — Bu O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ilmiy asosda yondashilayotganidan dalolat beradi. Universitet jamoasini qutlug' sana bilan tabriklagan holda ularning mashaqqatli va sharaflil faoliyatiga kuch-quvvat tilayman. Prezidentlarimiz singari biz, olimlar ham yanada yaqin bo'lsak, ilmiy sohada hamkorlikni yanada kuchaytirsak, shubha yo'qki, yutuqlarimiz dunyoda doston bo'ladi.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

E'lon

**«Yevroosiyo Banki»
aksiyadorlik jamiyatining
Tugatish komissiyasi
kreditrlarni kreditorlar
talablari reyestri
shakllantirilishi
yakunlanganligi haqida
xabardor qiladi.**

2025-yil 17-noyabr kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha kreditorlar o'z talablarini ko'rib chiqish natijalari, ularning navbati hamda talablarni qondirish jarayoni boshlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan quyidagi manzilda tanishishlari mumkin: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Minor tor ko'chasi, 77-uy.
Qo'shimcha ma'lumotni 33-477-27-11 telefon raqami yoki info@eubank.uz elektron pochta manzili orqali olish mumkin.

**«Yevroosiyo Banki» AJ
Tugatish komissiyasi.**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi

BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI

quyidagi kafedralar bo'yicha lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

Estrada xonandaligi kafedrası — kafedra mudiri, dotsent (1);
Estrada cholg'ularida ijrochilik va dirijyorlik kafedrası — kafedra mudiri, professor (1);
Fortepiano ijrochiligi kafedrası — kafedra mudiri, o'qituvchi (1), dotsent (1);
Musiqiy nazariy va tarixiy fanlar kafedrası — dotsent (1);
Kompozitorlik va aranjirovka kafedrası — dotsent (1);
Musiqiy ovo z rejissyorligi kafedrası — dotsent (2).

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining xodimlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 1-uy. O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti. **Telefonlar:** 97-139-35-25, 90-823-31-80.

Tanlovda ishtirok etish uchun da'vogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- rektor nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqaasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxalari;
- o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari ro'yxati;
- mutaxassislik bo'yicha oxirgi uch o'quv yilida malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki sertifikat nusxasi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 10 552 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi